



Jamiyat ijtimoiy rivojlanishida zamonaviy psixologiyaning o'rni



**BUXORO DAVLAT
PEDAGOGIKA
INSTITUTI**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PSIXOLOGIYA KAFEDRASI**

“JAMIYAT IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING O'RNI”

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI
(2025 yil 22-aprel)**

**“KAMOLOT” nashriyoti va “BUKHARA-HAMD PRIRT” nashriyoti tahririyati ostida
Buxoro – 2025**



UO'K: 159.9:316(575.1)

KBK: 88.3 + 60.5

J26

“JAMIYAT IJTIMOIY RIVOJLANISHIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING O'RNI” mavzusidagi // respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “KAMOLOT” nashriyoti va “BUKHARA-HAMD PRIRT” nashriyoti tahririyati-Buxoro 2025-yil. Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to`plamida Respublikamiz, Rossiya va Xitoy olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magistrler, talabalar maqolalari o`rin olgan.

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to`plamida Respublikamiz, Rossiya va Xitoy olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magistrler, talabalar maqolalari o`rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo`mitasi

1.	B.B.Ma`murov	-	Institute rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	M..N.Murodov	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.f.d.(Phd), dotsent rais o`ribbosari;
3.	G.V.Akramova	-	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo`lim boshlig`i, p.f.d (DSc), professor rais o`ribbosari.
4.	N.Dj.Yadgarov	-	BuxDu professor, p.f.d (DSc), a`zo;
5.	E.M.Muxtorov	-	BuxDu dotsent, p.f.d (DSc), a`zo;
6.	G.T.Yadgarova	-	BuxDu dotsent, p.f.n. a`zo;
7.	N.A.Baxriyeva	-	BuxDPI dotsent, p.f.f.d.(Phd), a`zo;
8.	J.Sh.Ostonov	-	BuxDPI dotsent, p.f.f.d.(Phd), a`zo;
9.	J.Dj.Ramazonov	-	BuxDTI dotsent, p.f.f.d.(Phd), a`zo;
10.	Sh.I.Toyirova	-	BuxDPI dotsent, p.f.f.d.(Phd), a`zo;
11.	G.Z.Rajabova	-	BuxDPI dotsent, p.f.f.d.(Phd), a`zo;

Mas`ul muharrir:

J.Sh.Ostonov, psixologiya fanlari bo`yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:

F.F.Ganjiyev, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

N.A.Baxriyeva, psixologiya fanlari bo`yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

G.Z.Rajabova, psixologiya fanlari bo`yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

To`plovchi va nashga tayyorlovchi:

J.Dj.Ramazonov, psixologiya fanlari bo`yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

“KAMOLOT” nashriyoti
“BUKHARA-HAMD PRIRT” nashriyoti



Annotatsiya

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7 fevraldag'i PF-4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, 2019-yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari va 2019-yil 16 yanvardagi Ta'lif sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-soni "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi" to'g'risida, 2019-yil ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son, 2020-yil 2 martdagi PF-5953-son "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish-yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida»gi farmonlari, Prezidentimizning 2022-yil 29 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi me'yoriy huquqiy hujjatlar ijrosini bajarish maqsadida Buxoro davlat Pedagogika institutining 2025-yil 22 aprelda o'tkaziladigan "Respublika ilmiy-amaliy anjumanini tashkil etish to'g'risidagi" 490-soni buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etildi.

Annotation

Based on the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. PF-4947 dated February 7, 2017, "On the Action Strategy for the Further Development of the Republic of Uzbekistan", Decree No. PF-5712 dated April 29, 2019, "On Approval of the Concept for the Development of the Public Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", and the additional measures for improving the system of quality control in education dated January 16, 2019, as well as the Presidential Decree No. PF-5847 dated October 8, 2019, "On the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030", Decree No. 1059 of 2019 "On Approval and Implementation of the Concept of Spiritual and Moral Education", and Decree No. PF-5953 dated March 2, 2020, "On the State Program for the Implementation of the Action Strategy for the Five Priority Directions of Development of the Republic of Uzbekistan in the Year of 'Development of Science, Enlightenment and the Digital Economy' for 2017-2021", as well as in accordance with the regulatory legal document of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 29, 2022, "On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022–2026", and in order to ensure their implementation, the article was recommended for publication based on Order No. 490 of Bukhara State Pedagogical Institute regarding the organization of the "Republican Scientific-Practical Conference to be held on April 22, 2025".

Аннотация

На основании Указа Президента Республики Узбекистан № ПФ-4947 от 7 февраля 2017 года «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», Указа № ПФ-5712 от 29 апреля 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года», дополнительных мер по совершенствованию системы контроля качества образования от 16 января 2019 года, а также Указа Президента № ПФ-5847 от 8 октября 2019 года «О Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», Постановления № 1059 от 2019 года «Об утверждении и реализации Концепции духовно-нравственного воспитания», Указа № ПФ-5953 от 2 марта 2020 года «О Государственной программе по реализации Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в Год развития науки, просвещения и цифровой экономики (2017–2021 гг.)», а также в соответствии с нормативно-правовым актом Президента Республики Узбекистан от 29 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», в целях реализации вышеуказанных документов, статья рекомендована к публикации на основании приказа № 490 Бухарского государственного педагогического института об организации Республиканской научно-практической конференции, которая состоится 22 апреля 2025 года.



BOLA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI

Tarmiza Latipovna Xurvalieva

p.f.d. (DSc), professor

Chirchiq davlat pedagogika universiteti,
Maktabgacha ta'lim fakulteti

Annotasiya. Makolada maktabgacha yoshdagi bolalar psixikasi va ta'lim-tarbiyasi bo'yicha xorijlik va mamlakatimiz olimlari tomonidan ilgari surilgan nazariyalar keltirilgan. Shuningdek, bolalardagi emotsiyal holat, ruhiy zo'riqish va xissiy jarayonlarni ro'y berishi xususida so'z yuritiladi. Pedagog-tarbiyachilar uchun psixologik tavsiya va ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: psixika, zo'riqish, tashkiliy-gigienik, kognitiv, ijtimoiy va emotsiyal rivojlanish, konvergensiya nazariyasi, destruktiv, individual.

Turli yosh bosqichlarida ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bolaning psixik rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlar va mazkur sharoitlar muloqot hamda faoliyatiga mos kelishiga e'tibor berishni taqozo etadi. Bolalarda ijobiy sifatlar orqali o'ziga bo'lgan emotsiyal munosabat paydo bo'ladi. Nima yaxshiyu, nima yomon ekanligini farqlaydi, yutuq va kamchiliklarini anglagan holda o'zini odilona baholay olishi kerak. O'z-o'zini baholash yetarlicha barqaror va ba'zan anglamagan holda kechadi. Xayotiy vaziyatlardan kelib chiqib, maqsadga intilish amalga oshirilayotgan faoliyatga bog'liq. Ma'lumki maktabgacha bolalik davrida bola aqliy, axloqiy, jismoniy va ma'naviy shakllanishning o'ziga xos psixologik xususiyatlarga boy yo'lni bosib o'tadi. Turli yosh bosqichlarida ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bolaning psixik rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlar va mazkur sharoitlar muloqot hamda faoliyatiga mos kelishiga e'tibor berishni taqozo etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning hayoti, ularning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan o'quv-tarbiyaviy faoliyat jarayonida tashkil etiladi. Ushbu jarayonlarga pedagogik-psixologik va tashkiliy-gigienik talablar qo'yiladi. Mamlakatimizning psixolog olimlari M.G.Davletshin, B.Qodirov, K.Qodirov, Sh.Do'smuhamedova, S.To'ychieva, O'. Shamsiev, D.Maxmudova va boshqalar bolalar ta'lim-tarbiyasidagi psixologik-pedagogik nazariyalarga asos solganlar. Turli yosh bosqichlarida tarbiyaning asosiy vazifalarini amalga oshirishda bolaning rivojlanishi uchun maktabgacha ta'lim muassasasida yaratilgan pedagogik-psixologik sharoitlar va mazkur sharoitlar muloqot hamda faoliyatiga mos kelishiga e'tibor berishni taqozo etadi. Maktabgacha yoshda bolalarda narsa va buyumlar, voqeа-hodisalarni idrok qilish orqali turlarga ajrata oladi. Bolalar predmetlarni xususiyatiga ko'ra rangi, shakli va katta, kichikni tartib bilan qo'ya oladi. Kichik maktabgacha yoshda (3-4 yosh) rangi va shaklini taqqoslay oladi. Katta va maktabga tayyorlov guruhida esa, murakkab ob'ektlarni sodda shakllarini topadi va ulardan oddiy peremetlar yasay oladi. Fazoni idrok qilish rivojlanadi ya'ni oldi, orqa, yuqori va pastni farqlaydi. Eng muhimmi diqqat va xotira rivojlanadi. Kattalarni yordamida kichik yoshdagi bolalar ayrim so'z va iboralarni eslab qoladi, buyumlar nomi, jonli va jonsiz tabiatni farqlaydi. Mustaqil ravishda she'r va hikoya, ertaklarni so'zlaydi. 3-4 yosh bolada hissiyot rivojlanadi. Atrofdagilar bilan kommunikativ munosabatda bo'ladi. Atrofida bo'layotgan voqeа-hodisalarga hissiyotlarini ifodalaydi. O'z-o'ziga ishonch mustahkamlanadi. Mustaqilikka intilish rivojlanadi, o'z harakatlarini erkin bajarishga intiladi va g'ururini ifodalaydi. Kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadi, kattalardan ma'lumot oladi. O'z harakatlarini boshqaradi, epchillik, jismoniy faollik oshadi, turlicha harakatlarni bajarishga urinadi.

5-6 yosh bolalarda xotira xajmi kengayadi, qator narsa va buyumlarni nomini eslab qoladi. Bu yoshda bolalarda tashabbuskorlik paydo bo'ladi va ijtimoiy munosabatlarga kirishadi.

Kattalar va tengdoshlarini hissiyotlarini anglaydi va qayg'uradi. Ular bilan o'zaro faol muloqotda bo'ladi. Atrofdagilar bilan ijobjiy munosabatda bo'ladi. O'zining istak va hoxishlarini jamiyat qabul qilgan me'yordarga mos ravishda amalga oshirishni anglaydi. Shaxsiy tashabbusini namoyon qiladi. Shaxsiy identivlik asoslari shakllanadi va hayotiy tajribalarini namoyon etadi. Asta-sekin bolalarda ixtiyoriy diqqat rivojlna boshlaydi, xotiraga tayangan holda o'quv topshiriqlarini bajara boshlaydi, mustaqil ravishda maqol va xikoya, qisqa satrli she'rlarni yodlab oladi. Barqarorlik rivojlanadi xamda diqqatni taqsimlanishi va ko'chishi ro'y beradi. Katta maktabgacha yosh bolalarda ko'rgazmali-obrazli va ko'rgazmali-harakat tafakkuri yetaricha rivojlanadi. 5-6 yoshda nafaqat topshiriqlarni namuna asosida bajara oladi, balki mustaqil ravishda noa'nanaevi shaklda tasvirlab beradi. Sabab-oqibatlarni muhokama qiladi va tushuntira oladi. 6-7 maktabga tayyorlov yoshdagagi bolalarda barqaror motivlar shakllanadi va maqsadga yo'nalgan harakatlarni bajaradi. Emotsional xayratlanish xodisisi ro'y beradi, voqe-a-hodisalarga shaxsiy munosabatini bildiradi. Bolalar o'zini baholaydi va xatti-harakatini tahlil qiladi. O'z-o'zini anglash va boshqarish rivojlanadi. Turli vaziyatlarga o'z fikrini bildiradi. So'z-mantiq tafakkur intensiv ravishda rivojlanishni boshlaydi. Bolalar murakkab bo'lmagan vazifalarni oddiy chizma va tasvirlardan foydalangan holda ifodalaydi. Namuna asosida labirint topshiriqlarni bajara oladi. Ko'pincha ko'rgazmali va mantiqiy tafakkur asosida mushohada yuritadi. Asosiy hissiyotlar sababini tushunadi, kimnidir xafa qilsa, o'zini aybdor his qiladi, yaxshi yoki yomon xulqqa baho bera oladi. Tengdoshlari bilan o'zin mobayida g'oliblikdan quvonishni biladi. Yaqin insonlari va do'stlari bilan o'z hissiyotlari va kechinmalari bilan o'rtoqlashadi. Eng muhimi qo'rquv va xavfni tushunadi. O'ziga tanish bo'lgan tushunarli asarlarni qiziqish bilan tinglaydi va ularga hissiyotlarini namoyon etadi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixik rivojlanishida o'zin katta ahamiyatga ega. Aksariyat olimlar bolalarni shaxs sifatida shakllanishi va xulq-avtorini rivojlanishida, nutq va bilish faoliyatida o'yinning ta'siri muhim ekanligini asoslaydi.

Dj.Lokk insondagi barcha bilimlar hissiy tajriba asosida yig'iladi degan xulosaga keladi – “hissiy tajriba ikkita turga bo'linadi: refleksiya va sezgi. Ikkala jarayon ham tashqi olam haqidagi bilimlarning asosi bo'lib xizmat qiladi. Sezgi nafaqat anglashning birinchi bosqichi, balki tashqi olam haqidagi bilimlarni kashf qilishning yagona yo'li, inson bilan bog'lanuvchi yagona kanal hisoblanadi” [4]. David Gartli ingliz psixologi psixikaning hayot davomida shakllanishida tarbiyaning imkoniyatlari, bolaning psixik rivojlanish jarayoniga ta'sir ko'rsatish haqiqatdan ham chegaralanmagan deb hisoblaydi. U quyidagi fikrlarni bildiradi “inson psixikasining rivojlanishi va xulq-atvorining shakllanishiga oid bilimlarni qiyoslash orqali o'zlashtirishdan bola tarbiyasida foydalanish lozim. Chunki bolaning kelajagi atrofdagilarning unga nimalar haqida axborot berayotganligi bilan bog'liqdir. Shuning uchun bolaning qanday o'sishi, qanday fikrlashi va hatti-harakati faqatgina kattalarga bog'liqdir” [5;72-81-b]. Shunday ekan, maktabgacha yoshidagi bolalarda emotsional zo'riqishni oldini olishda oila va ota-onalar ta'sirini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu davrlarda bolalar tomonidan amalga oshiriluvchi harakatlar traektoriyasi bizning tadqiqot ishimizda emotsional xolatlarni bartaraf etish bo'yicha trening mashqlar tizimini ishlab chiqish ko'zda tutilgan.

Quyida G.Krayg va D.Bokumning 4 yoshgacha bo'lgan bolalar rivojlanish xususiyatlariiga oid fikrlari keltiriladi. “Bolalar o'z tajribalarini umumlashtirishga harakat qiladilar. Ularning mulohazalari asta-sekin mantiqan fikrlashga o'ta boshlaydi. Bolalarda tobora so'z boyligi kengayadi, ular bir vaqtning o'zida ijtimoiy qadriyatlarni ham o'zlashtiradilar, odobaxloq me'yorlarini egallab, kattalar va tengdoshlari bilan muloqotga kirishadilar. Natijada til va nutq ilk go'daklik va bolalik o'rtasidagi o'zaro ko'prik vazifasini o'taydi. Uning yordamida bola o'z istak va xohishlarini ma'lum qiladi va tushuntiradi, ehtiyojlarini namoyon qiladi. Bolalar o'z atrofidagi odamlar, tengdoshlari bilan muloqot qila boshlaydilar” [3; 318-327-b].

Psixolog olim R.S.Nemov fikricha “inson barcha bilimlarni turli xil manbalardan olishi mumkin. Inson bolalikda atrofidagi odamlar bilan to'qnashadi, ya'ni ota-onasi, qarindoshlari va ularning o'rnini bosuvchi boshqa kishilar bilan muloqotda bo'ladi. Bola kattalar bilan muloqotga kirishar ekan, ularning bolaga bildirgan munosabati, fikrlari ta'sirida nutqni o'zlashtiradi, unda



o'z-o'zini baholash va o'ziga ishonch hissi paydo bo'ladi, shaxsiy tasavvurlar shakllanadi, atrofidagi narsa va buyumlar, odamlarni tushunishni o'rganadi. Natijada bola o'zining bilim, ko'nikma va malakalarini, irodaviy va boshqa sifatlarini baholaydi. Bola tengdoshlarining yutuqlari va o'zining shaxsiy muvaffaqiyati va muvaffaqiyatsizligini qiyoslaydi, o'zini tahlil qilish ko'nikmasi shakllanadi”[8;13-b]. Darhaqiqat bolalarda shaxsiy ijobjiy fazilatlar shakllanib, ularda ota-onasi, tengdoshlari va boshqa odamlarga nisbatan mehr-muhabbat hissi yuzaga keladi.

L.S. Vigotskiy bilimlarni egallashning mexanizmlari “rivojlanishning yaqin zonasini-bola biron bir narsani mustaqil bajara olmaydi, lekin kattalar yordami bilan uddalay oladi, bola bugun nimani kattalar yordamida qilsa, ertaga uni mustaqil bajara oladi, muhim rivojlanish zonasini-bolaning mavjud tayyorlarlik darajasi bo'lib, unig qaysi topshiriqlarni mustaqil bajara olishi bilan ajralib turadi” deya ilmiy izohlaydi [7].

M.Davletshin fikricha, “asosan shu davrdan boshlab, bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog'cha yoshidagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarni o'zlashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat malakalarini shakllantirish, nutqni rivojlanish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini hosil qilish davridir” [1;38-b].

Maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonida tashqil etiladigan muhit ham bola uchun qiziqarli va yoqimli bo'lishi lozim. Agarda oilada ijtimoiy-madaniy muhit yaxshi bo'limasa, bola ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan rivojlanishda orqada qoladi. Hattoki bolaning sog'lom ovqatlanmasligi, jismoniy rivojlanish bilan birga psixik taraqqiyotda ham kamchiliklarni vujudga keltiradi. Tadqiqotimiz davrida bolalar bilan o'tkazilgan suhabat natijalari mактаб та'limiga ijtimoiy va motivatsion tayyorlik o'zaro uyg'unlikda rivojlanishi, shuningdek irodaviy sifatlar ham bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Yuqorida keltirilgan fikrlar tarbiyachi-pedagoglardan bolaning yosh va individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ta'limiy yondashuvlarni aniqlash va tanlashga yordam beradi. Individual yondashuvlarga asoslangan metodlar pedagogik jarayonni bolaning individual o'ziga xos jihatlarini e'tiborga oлган holda amalga oshirishni ko'zda tutadi. Demak, maktabgacha yoshdagи bolalarda xavotir, ruhiy zo'riqishni bartaraf etish uchun, psixolog, tarbiyachi va ota-onalar hamkorlikda ishlashi lozim. Eng muhimi bolalarda kognitiv-xulq-atvor terapiyasi o'tkazilishi kerak. Ya'ni tafakkur, idrok va odob-axloq me'yorlarini shakllantirishdagi xatoliklar ustida korreksion ishlar olib borish zarur. Natijada bolalarda shaxsiy strategiya (yo'naliш) shakllanadi, qo'rquv va xavotirni paydo qiluvchi voqeа va hodisalarga bo'lgan munosabat o'zgarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Davletshin. M.G., Sh.Do'stmuhamedova va boshq. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.O'quv metodik qo'llanma.-T.: 2004-129 b.
2. Галустова О. В. Шпаргалка по истории психологии: учеб. пособие. -М.: ТК Велби, 2005.-48 с.
- 3.Крайг.Г., Бокум Д. Психология развития-9-е изд.-СПб.: Питер.-2012.-940с.
4. Локк. Дж. Опыт о человеческом разумении -М.:Издательство: Социум, 2014.-621с.
5. Марцинковская ТД. Детская практическая психология: Учебник/ М.: Гардарики, 2003.-255.
6. Мещерякова Б.Г., Зинченко В.П. Большой психологический словарь. М.: 2003 - 672 с.
7. Выготский Л.С. Вопросы детской психологии-СПб.: Союз, 1997.-224 с.

TALABALARING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI. (HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARI MISOLIDA).

Abdullahov Amrullo Nassulloyevich
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti dotsenti.



JAMIYAT HAYOTIDA IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNING OILAVIY MUNOSABATLARGA TA'SIRI.....	575
<i>F.Axmedova</i>	575
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI TA'LIMGA ADAPTATSIYA QILISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	576
<i>N. Xujamkulova</i>	576
ZAMONAVIY PSIXOLOGIYADA ILMIY FAOLIYATNING IJTIMOIY PEDAGOGIK AHAMIYATI.....	578
<i>Dehqanova Noila Mirzohid qizi</i>	578
RUHIY TARBIYANING ABDULLA AVLONIY ASARLARI TALQINIDA.	581
<i>Abduraxmonova Nozimaxon Nozimjon qizi</i>	581
O'ZBEK YOSHLARIDA OILA TO'G'RISIDAGI SHARQ FALSAFIY-PSIXOLOGIK QARASHLARI TALQINI.....	583
<i>Tohirova Maftunaxon Zokirjon qizi</i>	583
O'ZBEK VA QIRG'IZ QIZLARNI OILAGA TAYYoRLASHDA ETNIK STEREOTIPLAR VA PSIXOLOGIK USTANOVKALARINI DETERMINANTLARI	586
<i>Djuxonova Noxida Xayotjonovna</i>	586
ВНЕДРЕНИЕ ИНКЛЮЗИВНОЙ КОНЦЕПЦИИ В СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ..	590
<i>Мирзажонова Элеонора Тополдиевна</i>	590
<i>Mahmudjonova Xuressidaxon Kamoljon kizi</i>	590
THE IMPACT OF GENERAL AND DOMAIN-SPECIFIC ABILITIES ON THE PROFESSIONAL EFFECTIVENESS OF ENGLISH LANGUAGE TEACHERS	593
<i>Suleymanova Albina Nailievna</i>	593
<i>Muminov Kamil Taxirovich</i>	593
O'QUVCHILARIDA EMPATIK QOBILIYATLAR RIVOJLANISHINING PEDAGOGIK ASOSLARI	596
<i>Muradova Mavjudha Radjabovna</i>	596
TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY SO'NISH MUAMMOSI ILMIY JIHATLARI	599
<i>Akbarova Maftuna Erkinjon qizi</i>	599
ILK O'SPIRINLARNING KASB TANLASH JARAYONIDA	604
OTA-ONANING ROLI	604
<i>Dildora Ziyadullayevna Jo 'raqulova</i>	604
<i>Shoyeva Zulfiya Xasanovna</i>	604
BOLA RIVOJLANISHINING PSIXOLOGIK ASPEKTLARI	607
<i>Tarmiza Latipovna Xurvalieva</i>	607
TALABALARING SHAXSLILIK SIFATLARINI TADQIQ QILISHNING PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK ASOSLARI. (HARBIY TA'LIM FAKULTETI TALABALARI MISOLIDA).	609
<i>Abdullahov Amrullo Nassulloyevich</i>	609
JAMOAVIY SPORT TURLARIDA SPORTCHILARNING PSIXOLOGIK MOSLASHUV JARAYONLARI VA O'RGANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	613